

TOVAR VA XIZMAT KO'RSATISH BELGILARINI XALQARO RO'YXATGA OLISH JARAYONIDA MADRID KELISHUVI VA PROTOKOLINING O'RNI

*Nurmatova Asal Doniyor qizi,
Zokirboboyeva Diyora Bahodir qizi
O'zMU Patentshunoslik yo'nalishi
4-kurs talabalari*

Anotatsiya: Ushbu tezisdagi tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazishda Madrid tizimining ahamiyati ko'rib chiqilgan. Xususan Jahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan boshqariladigan Madrid kelishuvi va protokolining mazmuni, ularning o'ziga xos jihatlari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek ushbu hujjatlarning o'zaro farqli tomonlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinib, tovar belgilarini bir nechta davlatlarda ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Madrid tizimi, kelishuvi, protokoli, WIPO, ariza, savdo belgisi, modernizatsiya, shartnoma.

Аннотация: В данной тезисе рассматривается значение Мадридской системы при международной регистрации товарных знаков. В частности, освещается содержание Мадридского соглашения и Протокола, администрируемых Всемирной организацией интеллектуальной собственности, их особенности и практическое значение. Также проанализированы различия между этими документами, их преимущества и недостатки, а также раскрыта их роль в упрощении процесса регистрации товарных знаков в нескольких странах.

Ключевые слова: Мадридская система, Мадридское соглашение, Мадридский протокол, Всемирная организация интеллектуальной собственности, заявка, товарный знак, модернизация.

Annotation: This thesis examines the importance of the Madrid system in the international registration of trademarks. In particular, it discusses the Madrid Agreement and the Madrid Protocol administered by the World Intellectual Property Organization, their main features and practical significance. The article also analyzes the differences between these legal instruments, as well as their advantages and disadvantages, and highlights their role in simplifying the process of registering trademarks in several countries.

Keywords: Madrid system, Madrid Agreement, Madrid Protocol, World Intellectual Property Organization, application, trademark, modernization.

Hozirgi globallashuv jarayonida tovar belgilarini xalqaro miqyosda himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar va tadbirkorlar o'z mahsulotlarini bir nechta davlatlarda ilgari surishlari natijasida ularning brendlari huquqiy jihatdan himoya qilish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish tizimi muhim rol o'ynaydi. Tovlar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazishning eng samarali mexanizmlaridan biri Madrid tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim ikki asosiy hujjatga tayangan holda faoliyat yuritadi: Madrid kelishuvi va Madrid protokoli. Mazkur maqolada aynan ushbu ikki hujjatning tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishdagi o'zni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Madrid tizimining umumiy tavsifi

Madrid tizimi xalqaro miqyosda tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazishni soddalashtiruvchi yagona markazlashgan mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizim orqali ariza beruvchi shaxs birgina ariza topshirish orqali bir vaqtning o'zida bir nechta davlat hududida o'z belgisini huquqiy himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo har bir davlat o'z milliy qonunchiligiga asosan belgini mustaqil tekshiradi. Tizimning boshqaruvi WIPO (World Intellectual Property Organization) tomonidan olib boriladi. Mazkur tizimning muhim xususiyatlaridan biri shuki, ariza berish jarayoni markazlashtirilgan tartibda olib boriladi. Ya'ni ariza beruvchi avval o'z milliy idorasida ro'yxatdan o'tgan yoki ariza berilgan belgi asosida xalqaro ariza taqdim etadi. WIPO arizani tekshiradi va tanlangan davlatlarga yuboradi. Har bir davlat esa o'z milliy qonunchiligiga muvofiq belgini tan olish yoki rad etish masalasini mustaqil hal qiladi¹. Tizimning yana bir muhim jihati - yagona til va yagona to'lov tizimining mavjudligidir. Ariza beruvchi bir nechta davlatga alohida alohida murojaat qilish o'rniga yagona tartibda hujjat topshiradi. Shu bilan birga, ro'yxatdan o'tkazilgan xalqaro belgi keyinchalik yangilanishi, o'zgartirilishi yoki egasi o'zgargan taqdirda ham markazlashgan tartibda qayd etiladi. Shuningdek huquq egasiga belgini himoya qilishni kengaytirish imkonini beradi. Agar dastlab bir nechta davlat tanlangan bo'lsa, keyinchalik qo'shimcha davlatlar ham kiritilishi mumkin². Xalqaro himoya 10 yil muddatga beriladi va uni uzaytirish imkoni ham mavjud.

Madrid kelishuvi Parij konvensiyasining prinsplari asosida 1891-yilda tuzilgan bo'lib, o'sha davrda savdo va sanoatning tez rivojlanishi tufayli, turli davlatlar o'rtasida tovar belgilarini himoya qilishda muvofiqlik zarur edi. Shu maqsadda kelishuv birinchi markazlashgan xalqaro tizimni yaratdi, bunda ariza bitta xalqaro byuro orqali topshirilib, tanlangan a'zo davlatlarga yuboriladi. Har bir davlat esa belgini tan olish yoki rad etish bo'yicha qarorini o'z milliy qonunchiligiga muvofiq

¹ <https://progressivelegal.com.au/trade-marks/international-trade-mark-registration/wipo/>

² Guide to the International Registration of Marks under the Madrid Agreement.

https://books.google.ru/books?id=ZXhjDwAAQBAJ&pg=PA2&hl=ru&source=gbv_toc_r&cad=2#v=onepage&q&f=false

mustaqil ravishda qabul qiladi. Agar belgi rad etilmasa, u tanlangan davlat hududida milliy ro'yxatga olingan belgi bilan teng huquqiy kuchga ega bo'ladi³. Kelishuvning afzalliklari shundaki ariza beruvchi birinchi navbatda milliy ro'yxatdan o'tgan belgisi asosida bir nechta davlatda huquqiy himoya olishi mumkin. Ariza beruvchi avvalo o'z mamlakatida belgini ro'yxatdan o'tkazadi, shundan so'ng xalqaro ariza topshirish huquqiga ega bo'ladi. Biroq uning cheklovlari ham mavjud: milliy ro'yxatga qattiq bog'liqlik va rad etish qarorining xalqaro ro'yxatga ta'siri. Agar belgi rad etilmasa, u tegishli davlat hududida milliy ro'yxatga olingan belgi bilan teng huquqiy kuchga ega hisoblanadi. Shu sababli 1989-yilda Madrid protokoli qabul qilinib, tizim yanada moslashuvchan va amaliyotga qulay bo'ldi.

Madrid protokoli 1989-yil 27-iyunda qabul qilingan bo'lib, xalqaro savdo rivojlanishi va davlatlar ehtiyojlarining ortishi natijasida tizimni modernizatsiya qilish maqsadida qabul qilingan. Protokol kelishuvdagi ayrim qat'iy talablarni yumshatib, tizimdan foydalanishni yanada moslashuvchan shaklga keltiradi. Protokolga ko'ra, xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun milliy ro'yxatdan o'tgan belgi bo'lishi shart emas - milliy ariza asosida ham xalqaro ariza topshirish mumkin. Bu esa tadbirkorlar uchun ro'yxatdan o'tkazish jarayonini tezlashtiradi va tizimdan foydalanishni osonlashtiradi. Protokol davlatlarga rad etish muddatini uzaytirish imkonini beradi hamda individual to'lov tizimini joriy etadi. Bu mexanizm ishtirokchi davlatlar sonining ortishiga va tizimning keng qo'llanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda Madrid tizimining keng qo'llanishi aynan protokolning moslashuvchanligi bilan izohlanadi⁴. Mazkur tizim WIPO (World Intellectual Property Organization) tomonida boshqariladi. Protokol 14 moddadan iborat.

Madrid kelishuvi (1891) va Madrid protokoli (1989) xalqaro tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish tizimini tartibga soluvchi asosiy shartnomalardir. Madrid kelishuvi tizimning dastlabki shakli bo'lib, xalqaro ro'yxat milliy ro'yxatga to'liq bog'liq edi. Ya'ni agar asosiy milliy ro'yxat bekor qilinsa, xalqaro ro'yxat ham o'z kuchini yo'qotardi. Shu bilan birga, ariza topshirish jarayoni qat'iy bo'lib, avvalo milliy ro'yxatdan o'tgan belgiga asoslanishi talab qilinar edi. Bu mexanizm belgi egalari uchun huquqiy aniqlik yaratgan bo'lsa-da, tizimni global va zamonaviy talablar bilan moslashtirishda cheklovlar mavjud edi. Madrid protokoli esa kelishuvni modernizatsiya qilib, tizimni amaliyotga qulaylashtirdi. Protokol asosida ariza milliy ro'yxatdan mustaqil topshirilishi mumkin, shuning natijasida xalqaro ro'yxat olish jarayoni soddalashtirilgan. Xalqaro ro'yxatning amal qilish muddati 10 yil qilib belgilangan va uni yangilash tartibi soddalashtirilgan. Protokol bir nechta davlatda huquq olish imkoniyatini kengaytiradi, milliy bog'liqlik va rad etish qarorining salbiy ta'sirini kamaytiradi. Shu bilan birga, protokol tizimni yanada moslashuvchan va

³ Madrid tizimi. <https://www.mewburn.com/law-practice-library/madrid-system-the-basic>

⁴ Madrid Protocol <https://kashishworld.medium.com/madrid-protocol-is-it-the-correct-choice-for-you-28981944b60e>

amaliy qiladi, ariza beruvchilar uchun qulaylik yaratadi va a'zo davlatlar o'rtasida xalqaro ro'yxatning samarali boshqarilishini ta'minlaydi. Kelishuv tizimning tarixiy poydevorini tashkil etsa, protokol esa tizimni global miqyosda samarali, moslashuvchan va qulay qiladi⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://progressivelegal.com.au/trade-marks/international-trade-mark-registration/wipo/>
2. Guide to the International Registration of Marks under the Madrid Agreement.
https://books.google.ru/books?id=ZXhjDwAAQBAJ&pg=PA2&hl=ru&source=gbs_toc_r&cad=2#v=onepage&q&f=false
3. Madrid Xalqaro Savdo Belgilarini Ro'yxatdan O'tkazish Tizimi
<https://filings.ae/guides/madrid-system-for-international-trademark-registration>
4. Madrid tizimi. <https://www.mewburn.com/law-practice-library/madrid-system-the-basic>
5. Madrid Protocol <https://kashishworld.medium.com/madrid-protocol-is-it-the-correct-choice-for-you-28981944b60e>
6. Madrid System Legal Texts. https://www.wipo.int/en/web/madrid-system/legal_texts/index

⁵ Madrid System Legal Texts. https://www.wipo.int/en/web/madrid-system/legal_texts/index